

INNOVATION TEXNOLOGIYALARNING TA'LIMDAGI O'RNI

Turdaliyeva Zarnigor

NamDU magistranti

Annotatsiya: *Bugungi globalizatsiya jarayonlarida ilm-fan, texnologiyadagi ulkan yutuqlar samarasi ta'lim tizimining ham rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Innovatsion yangiliklarda foydalanish natijasida an'anaviy ta'limda keskin o'zgarishlar kuzatilmoqda.*

Kalit so'zlar: *Innovatsiya, innovatsion pedagogika, an'anaviy ta'lim.*

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish hamda texnologiya sohalarida erishilayotgan yutuqlar, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan islohatlarning barchasi o'quvchi shaxsi shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Innovatsion pedagogika - hozirgi davrda norasmiy fan sifatida ma'lum bo'lgan, biroq kun sayin butun jahon oha mutaxasislarining e'tiboriga tushib jadal rivojlanib innovatsion jarayonlarni o'rganish, innovatsion pedagogik muammolarni yechish ta'lim sohasida innovatsion jarayonlarning tatbiq qilish xususiyatlari o'rganishdan iborat.[1.B223] Pedagogik hamkorlikka asoslangan o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan, o'quvchilarni boshqarish fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgaralar manfaati bilan hisoblashish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zini boshqarish, fikrini aniq, lo'nda va puxta bayon eta olishga o'rgatishdan iboratdir. Uning ta'limiy ahamiyatini tan olgan pedagog olimlar jamoasi shu boisdan ham mavjud an'anaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar.

Innovatsiya jarayoni o'z ichiga tarkibiy tuzilmalarni va qonuniyatlarni qamrab olgan. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

1. Pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bir sharoitda emasligi qonuni.

2. Nihoyat amalga oshirish qonuni.

3. Komillashtirish qonuni.

4. Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytish qonuni. [2.B131]

Innovatsiya - (inglizcha «Innovation» - yangilik kiritish) - tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalari va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish).[3.B54]

Pedagogik yangilik - pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasi. Innovatsiya - yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o'zlashtirishni va targ'ibotini o'rganadigan fan. Pedagogika fanida berilgan g'oyalarni ishlanganlik darajasining muvofiqlik jihatlari bo'yicha umumiy va

qisman innovatsion loyihalar miqdori, shuningdek, pedagogik amaliyotda ulardan foydalanishning imkoniyatlari mavjud. Pedagogik amaliyot tizimi quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik fan tizimi va pedagogik amaliyot yangi bo'lmagan, biroq doimiy dolzarb va o'zidan o'quv-tarbiya jarayonini bitimlashtirishning umumiy g'oyalari va amaliy texnologiyalarini o'zida mujassam qilgan.

2. Insonparvarlik pedagogikaning barcha nazariy qoidalari va amaliy texnologiyalarining yig'indisi.

3. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda yangi g'oyaviy yondashuvga asoslangan.

4. Axborotlashtirish, ommaviy kommunikatsiyalashning yangi g'oyalari va vositalarini qo'llashga asoslangan texnologiyalar innovatsion texnologiyalar hisoblanadi.[4.B65]

Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayoni axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Natijada o'quv faoliyat jarayoni ham yangilikka muhtoj bo'lib qoldi. Bu holatdan chiqish uchun darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish o'qituvchining bu faoliyatini amalga oshirish uchun tayyorgarlarga bog'liq. Innovatsion muammolarni hal etish muhim zamonaviy ilmiy fikrlash yo'nalishlariga qo'shish innovatsion jarayonlarni o'rganish, innovatsion pedagogik muammolarni yechish ta'lim sohasida innovatsion jarayonlarning tatbiq qilish xususiyatlari o'rganishdan iborat. Pedagogik hamkorlikka asoslangan o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan, o'quvchilarni boshqarish fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgaralar manfaati bilan hisoblashish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zini boshqarish, fikrini aniq, lo'nda va puxta bayon eta olishga o'rgatishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, dars davomida o'quvchining ta'lim faoliyati innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshirilsa, u axborotni qabul qilishi oson kechadi va ta'lim samaradorligi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.G'.Yo'ldoshev. S.A.Usmonov «Pedagogik texnologiya asoslari». -T.: O'qituvchi, 2019.
2. R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Xoliqberganov. Pedagogika. -T.: O'qituvchi, 2017.
3. N.N.Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Yozuvchi nashriyoti, 2017.
4. Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integrastiyalashgan pedagogika. TDPU, 2017.